










JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2023 yil yanvar-avgust oylari holatiga




	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
	Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali kelib tushgan murojaatlar
	Ishonch telefoni orqali og`zaki murojaatlar
	Statistika agentligining elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
	To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
	Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga 2023-yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 728 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 102 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 5 ta Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali, 369 ta Agentlikning elektron pochta orqali, 109 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 13 nafar ishonch telefoni orqali, 136 ta Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Statistika agentligiga asosiy qismi Toshkent shahridan 413 ta (o'tgan yilning shu davrida 281 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 64 ta, Samarqand viloyatidan 36 ta, Sirdaryo viloyatidan 23 ta, Andijon viloyatidan 23 ta, Qashqadaryo viloyatidan 23 ta, Buxoro viloyatidan 33 ta, Namangan viloyatidan 18 ta, Jizzax viloyatidan 15 ta, Farg'ona viloyatidan 21 ta, Navoiy viloyatidan 25 ta, Surxondaryo viloyatidan 13 ta, Xorazm viloyatidan 11 ta Qoraqalpog'iston Respublikasidan 7 ta hamda 3 ta murojaat boshqa hududdan kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Statistika agentligiga kelib tushgan jami **728** ta murojaatlarning tasiga chora ko'rildi, **610** ta murojaatlar ijobiy hal etildi, **108** ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, **10** ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **40,9** foizi (**298 ta**) jismoniy shaxslar va **59,1** foizi (**430 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



Og`zaki

- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 202-81-80



Og`zaki

- Statistika agentligi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 202-81-81



Elektron

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **Г.Салихова**

(71) 202-81-77